



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2023 yil 25 aprel

№ 1786

Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursiga qabul qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 yanvardagi PQ-4096-son Qaroriga muvofiq

Q A R O R Q I L A D I:

1. Sudyalar oliy maktabi huzuridagi Kengash qarori bilan tasdiqlangan “Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursiga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi”gi Nizom ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qabul komissiyasi (H-M.Isoqov) Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursiga 2023/2024 o‘quv yili uchun qabul to‘g‘risida ommaviy axborot vositalarida e’lon qilsin va kirish sinovlarini o‘tkazish chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin.

3. Sudyalarning malaka hay’atlari Qabul komissiyasiga talabgorlarning hujjatlarini qabul qilishda ko‘maklashsin.

4. Sudyalar oliy kengashining Sudyalar daxlsizligini ta’minlash va korrupsiyani oldini olish bo‘yicha sud inspeksiyasi (T.Buvayev) Sudyalarning malaka hay’atlari bilan birgalikda sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursiga hujjat taqdim qilgan talabgorlarning kasbiy, ishchanlik va shaxsiy fazilatlarini o‘rganish ishlarini tashkil etsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Sudyalar oliy kengashi raisining o‘rinbosari A.Jalilov zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov